

GLOBALLASHUV VA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM o‘qituvchisi

Qayumova Sevinch Qasimovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o‘rni va roli har qachongidanda muhim ekanligi haqida asosli fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: globallashuv, Oila Instituti , gender tenglik, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish , reproduktiv salomatlik, onalikni muhofaza qilish.

ABSTRACT

In this article, in the process of modern globalization, the role and place of women are more important than ever in the formation of an active citizenship of the new generation in any situation.

Key words: globalization, family institution, gender equality, protection from harassment and violence, reproductive health, maternity protection.

KIRISH

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta’milanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratianing muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelgan.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o‘rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o‘rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g‘oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning

faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida PF-5325- sonli Farmoni e'lon qilindi[1]. Mazkur Farmon asosida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning o'quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovordir. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadirlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiylashuvida madaniy, ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy omillarining ta'siriga doir fikrlar V.Vundt, E.Dyurkeym, P.Jane, U.Jeyms, Ch.Kuli, S.Koll, E.Klapared, J.Mill, B.Shtern va boshqa xorij olimlari asarlarida aks etgan. Xar qanday davlat va jamiyat, taraqqiyoti bir qator olimlar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy -siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, xuquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi-davlatlar rivojlanishining muhim indeksi hisoblanadi. Ayol va uning jamiyatdagi o'rni hamisha muhim me'zon bo'lib kelgan.

Ayollarning yangi avlodning shakillanishi va rivojlanishida ham o'rni be'qiyos. Shu bois islohatlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslari bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, muvaffaqiyatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-xarakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, ayol avvalo ona, shu bilan birga inson qadrini ulug'lash, ayolga xurmat va ehtirom, mu'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa- singillarimizni qadirlash orqali ro'yobga chiqadi.

Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi.

NATIJALAR

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjalari takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash

uchun mas’ul mansabdar shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish kabi asosiy yo‘nalishlardan iborat.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta’minalash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. [2].

E’tirof etish kerak, so‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. O‘zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘sildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi Nyu-York Konvensiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to‘ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Yurtimizda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida», «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida», «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilindi. [3].

«Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon bilan 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasи tasdiqlandi. [4].

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishdagi institutsional asoslar tubdan takomillashtirilib, Oliy Majlis Senati huzurida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi joriy qilindi va 2022 yil 1 martdagи Prezident farmoni bilan Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etildi. Senat Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi dastlab Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi ish boshlagan bo‘lsa, keyinchalik, ya’ni joriy yil 1 martdagи Prezident farmoni bilan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha

respublika komissiyasi tuzildi. Mana shu yilning mart oyida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi. [5].

MUHOKAMA

Ayollarni qo‘llab-quvvatlash masalalarida davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan 30 dan ortiq farmon va qarorlar hamda hukumat qarorlari qabul qilinganligini qayd etib o‘tish joiz. Birgina joriy yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari hamda «Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. [6]

Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini kengaytirish maqsadida davlat darajasida quyidagi choralarini ko‘rish zarur:

- yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- xalqaro banklar jamg‘armalar va tashkilotlarni xotin-qizlarning ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun kichik imtiyozli kreditlar olish imkoniyatlarini tashkil etishga jalb etish;
- uy bekalari bo‘lgan xotin-qizlarni band qilish bo‘yicha bepul o‘quv kurslarini ochish;
- uy-fermer xo‘jaliklariga soliq solish mexanizmini qayta ko‘rib chiqish;
- kichik biznes sohasidagi qishloq xotin-qizlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish;
- xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar berishni davom ettirish;
- xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun jamoat va davlat tashkilotlarini jipslashtirish;
- xotin – qizlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun mahalla miqyosida ishslash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan milliy hunar turlarining yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun xotin-qizlarimizni jalb etish va hokazo.

Sir emaski, yangi Uyg‘onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma’naviyatning mustahkamligiga bog‘liqdir. Mazkur o‘tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta’limi va ilm-fan bilan shug‘ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olma ayollar jamiyat» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rag‘batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so‘m ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko‘nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo‘lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat.

XULOSA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Zero, ayol – oila ustuni va jamiyat ko‘rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo‘lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.
- 2.Bazarova D. “O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davratlabi”. –Toshkent: TDYUU, 2019.22-2b
- 3.2030-yilga qadar o‘zbekiston respublikasi gender tenglik erishish strategiyasi tasdiqlash haqida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son..
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni..
- 6.Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoniga muvofiq:
- 7.O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2019. // www.stat.uz.